

Raqamli Iqtisodiyot Va An'anaviy Iqtisodiyotning Nazariy Asoslari

Navro'z-zoda Zebiniso Baxtiyorovna¹, Muhammadov Jaloliddin Mustafo o'g'li²

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot va an'anaviy iqtisodiyotning o'zaro ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning jadal rivojlanishi an'anaviy iqtisodiyotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada raqamli iqtisodiyotning ishlab chiqarish, savdo, xizmatlar va boshqaruv sohalariga ta'siri tahlil qilinadi, bu esa an'anaviy iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi imkoniyatlar yaratishda o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, an'anaviy iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, texnologik innovatsiyalar, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat bozori, raqamli infrastruktur, iqtisodiy o'zgarishlar, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish, avtomatlashtirish, raqamli strategiyalar, iqtisodiy integratsiya, raqamli xizmatlar.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy hayotga chuqur kirib borishi yangi iqtisodiy model – raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning an'anaviy yondashuvlari ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mazkur maqolada raqamli va an'anaviy iqtisodiyotning nazariy asoslari, ularning farqlari va o'zaro ta'siri tahlil qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan yangi turdagi iqtisodiyotni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirish tizimi hisoblanadi. Ba'zida uni internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot deb ham atashadi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyati shundaki, unda axborot, ma'lumotlar va ularni tahlil qilish asosiy resurs hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiyotdan farq qilib, moddiy mahsulotlar emas, balki intellektual mulk va xizmatlar ustunlik qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bir qator tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, raqamli texnologiyalar va platformalar kundan-kunga rivojlanib, yangi xizmatlar va biznes modellari paydo bo'lmoqda. Masalan, bugungi kunda ulkan platformalar Google, Amazon, Facebook (Meta) va Apple kabi kompaniyalar nafaqat o'z sohasida, balki turli yo'nalishlarda ham o'z xizmatlarini taklif etmoqda. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot doirasida an'anaviy ish shakllari o'zgarib, uzoqdan turib ishlash va frilanserlik kabi yangi ish shakllari paydo bo'lmoqda. Uchinchidan, raqamli iqtisodiyot tufayli chakana savdo sohasi butunlay o'zgarib, elektron tijorat rivojlanmoqda. To'rtinchidan, moliya sohasi ham raqamli transformatsiyadan o'tib, blokcheyn texnologiyasi va kriptovalyutalar kabi yangi vositalar paydo bo'lmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning yana bir muhim jihatlaridan biri raqamli to'lov tizimlaridir. Bugungi kunda naqd pulsiz to'lovlar, mobil banking, elektron hamyonlar va kriptovalyutalar kabi yangi to'lov usullari rivojlanmoqda. Bu esa moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirish va arzonlashtirish, shuningdek, moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga yordam beradi. Raqamli to'lov tizimlari ayniqsa COVID-19

¹ Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, i.f.f.d (PhD)

² Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi



pandemiyasi davrida muhim ahamiyat kasb etdi, chunki ular kontaktsiz to'lovlarni amalga oshirish imkonini berdi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bir qator yutuqlarga olib keldi. Masalan, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal" orqali fuqarolar va tadbirkorlar 300 dan ortiq elektron davlat xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Soliq tizimi ham raqamlashtirilmoqda, jumladan, elektron hisob-fakturalar va onlayn-kassalar joriy etilmoqda. Elektron tijorat ham rivojlanmoqda, ko'plab onlayn-do'konlar va internet-platformalar paydo bo'lmoqda.

An'anaviy iqtisodiyot bugungi kunda ham dunyo iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etadi va zamonaviy iqtisodiy tizimlar bilan murakkab munosabatlarga ega. An'anaviy iqtisodiyot elementlari ko'pincha zamonaviy iqtisodiy tizimlar doirasida saqlanib qoladi va rivojlanadi, ayni paytda globallashuv va texnologik o'zgarishlar an'anaviy iqtisodiyotga ham ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy iqtisodiyotning kelajakdagi o'rni ko'p jihatdan davlat siyosati, global iqtisodiy tendensiyalar va an'anaviy jamoalarning o'z iqtisodiy faoliyatini zamonaviy sharoitlarga moslashtirishga bo'lgan qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Har qanday holatda ham, an'anaviy iqtisodiyot elementlarini saqlash va rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega, chunki ular milliy o'ziga xoslikni saqlash va madaniy merosni avlodlardan avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi.

An'anaviy iqtisodiyotning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni bilan bog'liq yana bir muhim masala - bu intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va an'anaviy bilimlarni saqlash. Ko'plab an'anaviy jamoalar o'zlarining an'anaviy bilimlarini va ishlab chiqarish sirlarini asrlar davomida saqlagan. Bugungi kunda bu bilimlar ko'pincha tijorat maqsadlarida foydalanilmoqda, lekin an'anaviy jamoalar buning uchun hech qanday kompensatsiya olmaydilar. Shu sababli, xalqaro tashkilotlar an'anaviy bilimlarni himoya qilish va ulardan foydalanish natijasida olingan foydani adolatli taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda.

An'anaviy iqtisodiyotning eng muhim xususiyatlaridan biri - barqarorlik va o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishdir. Bu tizim ko'p asrlar davomida o'zgarmay qolgan va tashqi ta'sirlarga nisbatan bardoshli bo'lgan. Biroq, bu barqarorlik ayni paytda iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiruvchi omil ham bo'lgan. An'anaviy iqtisodiyotda texnologik innovatsiyalar va yangi ish usullarini joriy etish ko'pincha an'analarga zid deb qaralgan va qabul qilinmagan. Bu esa iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishiga olib kelgan. An'anaviy iqtisodiyotda mehnat taqsimoti ko'pincha jins va yosh bo'yicha amalga oshirilgan. Masalan, erkaklar odatda ovchilik, chorvachilik yoki og'ir jismoniy mehnatni talab qiladigan ishlar bilan shug'ullangan bo'lsa, ayollar uy ishlarini bajarish, bolalarni tarbiyalash va oziq-ovqat yig'ish bilan band bo'lgan. Bu mehnat taqsimoti ham an'analar va urf-odatlar orqali belgilangan. An'anaviy iqtisodiyot ko'pincha o'z-o'zini ta'minlash tamoyiliga asoslangan, ya'ni har bir jamiyat o'z ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan barcha mahsulotlarni o'zi ishlab chiqarishga intilgan. Savdo va tashqi aloqalar cheklangan bo'lib, asosan qo'shni jamiyatlar o'rtasida amalga oshirilgan.

1-jadval An'anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari.³

Ko'rsatkich	An'anaviy iqtisodiyot	Raqamli iqtisodiyot
Asosiy aktivlar	Jismoniy aktivlar (zavodlar, mashinalar)	Nomoddiy aktivlar (ma'lumotlar, dasturiy ta'minot, algoritmlar)
Ishlab chiqarish	Ishchi kuch va xomashyo asosida	Ma'lumotlar, texnologiyalar asosida
Bozor shakli	Mahalliy va mintaqaviy	Global, onlayn raqamli platformalar orqali
O'lchov birliklari	An'anaviy statistik indikatorlar (YaIM, sanoat hajmi)	Ma'lumot oqimi, internet ulanish tezligi, raqamli xizmatlar ulushi
Innovatsion rivojlanish	Sekin, kapitalga bog'liq	Tezkor, texnologik yechimlarga asoslangan

³ <https://doi.org/10.1787/9789264311992-en>



Ish o‘rinlari	An’anaviy sohalarida (sanoat, xizmatlar)	IKT, raqamli xizmatlar, startaplar
Xizmat ko‘rsatish	Yuzma-yuz, oflayn shaklda	Masofaviy, onlayn platformalar orqali
Boshqaruv uslubi	Ierarxik, markazlashgan	Moslashuvchan, tarmoqli va algoritmik

Ushbu jadvalda an’anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyotning asosiy farqlari aniq ko‘rsatib o‘tilgan. An’anaviy iqtisodiyotda ishlab chiqarish jismoniy aktivlar va inson mehnatiga tayangan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyotda nomoddiy aktivlar, xususan ma’lumotlar va dasturiy ta’minot asosiy rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarish jarayonlari va resurslari ham ularning tabiati va shakliga qarab tubdan farqlanadi.

Jadvalda shuningdek, bozor shakli va xizmat ko‘rsatish usullari ham taqqoslangan. An’anaviy iqtisodiyot ko‘proq mahalliy yoki mintaqaviy bozorlarda faoliyat yuritadi, xizmatlar esa yuzma-yuz amalga oshiriladi. Bunga qarshi, raqamli iqtisodiyot global miqyosda onlayn platformalar orqali ishlaydi, xizmatlar esa masofaviy va raqamli shaklda taqdim etiladi.

Innovatsiya va boshqaruv uslublari ham o‘zaro farq qiladi. Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalar tez amalga oshiriladi, boshqaruv esa moslashuvchan va algoritmik asosda olib boriladi. An’anaviy iqtisodiyotda esa boshqaruv an’anaviy ierarxik tizimda yuritiladi va innovatsiyalar nisbatan sekin joriy etiladi.

Shuningdek, jadvalda ko‘rsatkichlarni o‘lchashda ham farqlar mavjudligi ta’kidlangan. An’anaviy iqtisodiyotda YaIM va sanoat hajmi kabi an’anaviy indikatorlardan foydalanilsa, raqamli iqtisodiyotda axborot oqimi va raqamli xizmatlar ulushi kabi yangi o‘lchov birliklari ahamiyatga ega.

An’anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot o‘rtasidagi farqlar nafaqat nazariy darajada, balki amaliy faoliyatda ham o‘z ifodasini topadi. An’anaviy iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayoni ko‘proq jismoniy aktivlarga va inson mehnatiga tayangan bo‘lib, xizmatlar ko‘pincha mahalliy va mintaqaviy bozorlarda amalga oshiriladi. Misol uchun, O‘zbekistondagi ko‘plab sanoat korxonalari, xususan, metallurgiya va kimyo sanoatlari o‘z ishlab chiqarish jarayonlarida an’anaviy usullar va texnologiyalarni qo‘llaydi. Ushbu sohalarida mehnat unumdorligi asosan jismoniy ishchi kuchi va uskunalarning texnik holatiga bog‘liq bo‘lib, yangi texnologiyalarni joriy etish sekin kechadi⁴.

Boshqa tomondan, raqamli iqtisodiyot esa, asosan ma’lumotlarga va dasturiy ta’minotga tayanadi. Masalan, O‘zbekistonda tez rivojlanayotgan IT-sektor va raqamli xizmat ko‘rsatish platformalari aynan shunday iqtisodiyotning ko‘rinishidir. “MyTaxi” kabi onlayn transport xizmatlari yoki “Click” va “Payme” kabi raqamli to‘lov tizimlari nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy darajada ham keng qamrovli xizmatlar ko‘rsatmoqda. Bu kompaniyalar o‘z faoliyatida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga asoslangan.⁵ Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish an’anaviy iqtisodiyotga nisbatan sezilarli darajada tezroq amalga oshiriladi. Masalan, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) tahlili yordamida biznes jarayonlarini optimallashtirish samaradorligi 15-20% ga oshirilganligi haqidagi ma’lumotlar mavjud.⁶

Bundan tashqari, bozor va xizmat ko‘rsatish shakli ham ikki iqtisodiyotda tubdan farq qiladi. An’anaviy iqtisodiyotda xizmatlar ko‘pincha yuzma-yuz amalga oshiriladi, ya’ni mijoz va xizmat ko‘rsatuvchi o‘rtasida bevosita aloqalar mavjud. Raqamli iqtisodiyotda esa, xizmatlarning ko‘pligi masofaviy, onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi, bu esa xaridorlar uchun qulayliklar yaratadi va xizmat ko‘rsatish sohasining global miqyosda rivojlanishiga imkon beradi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. (2023). Sanoat va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari.

⁵ State Committee on Statistics of Uzbekistan. (2024). Digital economy indicators report.

⁶ <https://doi.org/10.1787/9789264311992-en>



Yana bir muhim jihat — boshqaruv tizimi va innovatsiyalar darajasi. An'anaviy iqtisodiyotda boshqaruv ierarxik va qat'iy strukturaga ega bo'lsa, raqamli iqtisodiyotda boshqaruv ko'proq moslashuvchan, tarmoqli va algoritmik yechimlarga tayangan. Bu esa o'z navbatida qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi hamda tashkilotlarning o'zgarishlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiyot turlari o'lchovlari ham farq qiladi. An'anaviy iqtisodiyotda YaIM va sanoat hajmi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi, raqamli iqtisodiyotda esa axborot oqimi, internet tezligi, raqamli xizmatlar ulushi kabi yangi indikatorlar joriy etilmoqda. Masalan, O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni so'nggi 5 yilda 40% ga oshgani kuzatilmoqda, bu raqamli iqtisodiyotning o'sishini ko'rsatadi.⁷

An'anaviy va raqamli iqtisodiyot o'rtasidagi farqlar nafaqat texnologik va infratuzilmaviy, balki boshqaruv, xizmat ko'rsatish va iqtisodiy samaradorlik sohalarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini oshirish, innovatsiyalarni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu ishda an'anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyotning mohiyati, struktura va faoliyat ko'rinishlari taqqoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy iqtisodiyot asosan jismoniy aktivlar va inson mehnatiga tayangan holda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni amalga oshirsa, raqamli iqtisodiyot nomoddiy aktivlar – ma'lumotlar, dasturiy ta'minot va raqamli texnologiyalarga asoslanadi. Raqamli iqtisodiyotning global miqyosda kengayishi, innovatsiyalarni tez joriy etishi va boshqaruvning moslashuvchanligi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, amaliy misollar yordamida raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonda ham tez sur'atlar bilan rivojlanayotgani, ayniqsa IT va raqamli xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsiyalarni faol joriy etishi tasdiqlandi. An'anaviy iqtisodiyot bilan raqamli iqtisodiyot o'rtasida mavjud bo'lgan farqlar va ularning o'ziga xos afzalliklari hamda kamchiliklari tahlil qilindi. Ushbu tafovutlar iqtisodiyotning turli sohalarida transformatsiya jarayonlarini tashkil etishda, shuningdek, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATION MARKETINGDAN FOYDALANISH. *ЎЗБЕК ИСТИҚЛОҚ ВА ИҚТИСОДИЙ ИЛМЛАР ЖУРНАЛИ* (buxdu. uz), 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREASING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 482-489.

⁷ International Telecommunication Union (ITU). (2024). ICT Statistics Report.



7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(49), 250-256.
8. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 371-376.
9. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118.
10. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 136-143.
11. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
12. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Indexing*, 1(1).
13. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.
14. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
15. Rasul o'g'li, K. U., & Bayazovna, G. N. (2025). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 4(37), 342-348.
16. Aliyor o'g'li, X. S., & Bayazovna, G. N. (2025). KIBERXAVFSIZLIK–RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 113-117.
17. Shuxratovich, T. B., & Bayazovna, G. N. (2025). INSON KAPITALINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O'RNI. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024*, 4(38), 187-191.
18. Shokirjon o'g'li, J. S., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA EKOLOGIK BARQARORLIK: BLOKCHeyNNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI ROLI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(50), 418-425.
19. Ramz o'g'li, S. D., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 130-135.
20. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(30), 193-197.
21. Giyazova, N. B., & Azimxon ogli, Q. S. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 159-163.
22. Giyazova, N. B., & Dildora, I. (2024). YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 213-217.



23. Bayazovna, G. N., & Ayubovich, X. A. L. (2024). THE CONCEPT OF FINANCE AND THE STAGES OF ITS FORMATION. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 673-679.
24. Bayazovna, G. N. (2024). GEOMARKETINGNING RESTORAN BIZNESIGA TADBIQ ETILISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 484-490.
25. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 27, 27.
26. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 47-50.
27. Islamovna, X. S. (2024). OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORI GEOGRAFIYASINI KENGAYTIRISHDA AXBOROT TIZIMLARIDAN VA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 493-500.
28. Islamovna, X. S. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 390-396.
29. Islamovna, X. S., & Karimbek, K. (2024). IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY MENEJER BOSHQARUVI. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 361-365.
30. Наврўззода, З. Б., & Хасанова, С. И. (2022). АҲОЛИНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БАНДЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 769-773.
31. Jamshedovna Q. H. GREEN ECONOMY AS A FACTOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 785-794.
32. Otabek o'g'li O. M., Jamshedovna Q. H. RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOYDALANUVCHI MA'LUMOTLARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 38. – С. 167-174.
33. Jamshedovna Q. H., Lutfullayevna X. L. BUSINESS MANAGEMENT: WAYS TO ACHIEVE DOMINANCE IN THE MARKET //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – Т. 6. – №. 49. – С. 247-249.
34. Khurramov O. K., Kasimova H. J. The main advantages of internet marketing and differences from traditional marketing //Мировая наука. – 2019. – №. 4 (25). – С. 65-68.
35. Jamshedovna Q. H., Askarovich S. M. Effective Development of the Economy on the Basis of "Green Economy". – 2023.

